


Andijon va Toshkent viloyatlaridagi investitsiya loyihalari taqdimot qilindi







Prezident Shavkat Mirziyoyev 8 fevral kuni Andijon va Toshkent viloyatlaridagi investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Dastlab joriy yilda ishga tushiriladigan loyihalar haqida axborot berildi. Xususan, Andijon viloyatida bu yil umumiy qiymati 1 milliard 433 million dollar bo'lgan 616 ta loyiha foydalanishga topshiriladi. Sohalari kesimida aytganda, ularning 258 tasi sanoat, 185 tasi xizmat ko'rsatish, 173 tasi qishloq xo'jaligi tarmoqlarida. Bularning natijasida qariyb 10 trillion so'mlik ishlab chiqarish quvvati tashkil etilib, 95 million dollarlik import o'rnini bosish hamda 265 million dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi. 61 mingta yangi ish o'ri ochiladi.

Masalan, "Tetrateks" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Baliqchi tumanida to'qimachilik kompleksi tashkil qilinmoqda. 2021-2022 yillarda to'rt bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ushbu loyihaning jami qiymati 126 million yevro. Korxonani ip-kalavadan boshlab tayyor trikotaj mahsulotlarigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Joriy yil oxirida ishga tushiriladigan birinchi bosqichda 2 ming 500 ta, barcha bosqichlar yakunida esa 10 mingta ish o'ri yaratiladi.

Bu kabi loyihalar bo'yicha jadal ish olib borish bilan birga yangilari ham shakllantirilmoqda. Masalan, Andijon viloyatida umumiy qiymati 782 million dollar bo'lgan 53 ta yangi investitsiya loyihasi ishlab chiqildi.

Taqdimotda ushbu loyihalarning istiqbollari, moliyalashtirish manbalari va infratuzilma masalalari yuzasidan ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni ish o'rinlariga talab yuqori bo'lgan mahallalarda joylashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosidagi korxonalarni ko'paytirib, bandlikni oshirish muhimligini ta'kidladi.

Toshkent viloyatida bu yil 355 ta loyiha ishga tushiriladi. Umumiy qiymati 1 milliard 624 million dollar bo'lgan mazkur projeklarning 198 tasi sanoat, 81 tasi xizmat ko'rsatish, 76 tasi qishloq xo'jaligi sohasidadir. Bularning samarasida qariyb 35 milliard so'mlik ishlab chiqarish quvvati yaratilib, 13 ming

kishining bandligi ta'minlanadi. 48 million dollarlik import o'rnini bosuvchi va 42 million dollarlik eksportbop mahsuot ishlab chiqariladi.

Bundan tashqari, viloyatda 187 ta yangi investitsiya loyihasi rejalashtirilmoqda. Taqdimotda ularning eng yiriklari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Masalan, "Metal produkt" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 25 million dollar evaziga Ohangaron shahrida metall mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. Uning quvvati yiliga 60 ming tonna bo'ladi. Joriy yil may oyida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan korxonada 150 kishi ish bilan ta'minlanadi.

"Angren" erkin iqtisodiy zonasida velosipedlar, Qibray tumanida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari ham ichki bozor uchun juda muhim.

Prezident sanoatga ilm va innovatsiyalarni faol jalb etish, mahsulotlar sifatiga alohida e'tibor qaratib, xaridorgirligini ta'minlash zarurligini ta'kidladi. Toshkent viloyatining transport va turizm salohiyatidan oqilona foydalanib, xizmat ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Manba